

**OILAVIY ZO'RAVONLIK BO'YICHA JAVOBGARLIKNI
BELGILOVCHI NORMALARGA O'ZGARTIRISH VA
QO'SHIMCHALAR KIRITISH**

Leytenant Qilichova Kamola Luqmonxon qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Oliy ta'lidan keyingi ta'lim fakulteti
tayanch doktarantura mustaqil izlanuvchisi

E-mail:kamolakilichova@gmail.com

**ИЗМЕНЕНИЯ И ДОПОЛНЕНИЯ В СТАНДАРТЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ
ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА БЫТОВОЕ НАСИЛИЕ**

Лейтенант Киличова Камолы Лукмонхан қизи.

Является независимым докторантом факультета высшего образования МВД
Республики Узбекистан.

E-mail:kamolakilichova@gmail.com

**CHANGES AND ADDITIONS TO THE STANDARDS DETERMINING
RESPONSIBILITY FOR DOMESTIC VIOLENCE**

Lieutenant Qilichova Kamola Luqmonkhan qizi

she is an independent doctoral student of the Faculty of Higher Education of the
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

E-mail:kamolakilichova@gmail.com

Annotatsiya:

Dunyo hamjamiyati tomonidan so'nggi yillarda oiladagi tayziq va zo'ravonlik holatlarini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu muammolar markaziy Osiyo davlatlarini ham chetlab o'tmadni. Xususan, O'zbekiston Respublikasida sodir etiladiga oilaviy maishiy zo'ravonliklarga javobgarlik muqarrarligi tamoyilini yanada muhim ekanligini bildirish, bu turdagi huquqbazarliklar vajinoyatlarni oldini olish maqsadi 2023-yil 11-aprel kuni "Xotinqizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilib, bir qator javobgarlik masallari ko'rsatilgan. Ushbu

tadqiqot ishida uchu javobgarlik choralariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish takliflari yoritiladi.

Аннотация: В последние годы мировое сообщество принимает меры по предотвращению домашнего насилия. Эти проблемы не обошли стороной и страны Центральной Азии. В частности, большее значение имеет принцип неизбежности ответственности за семейное домашнее насилие, совершенное в Республике Узбекистан, целью предотвращения таких нарушений и преступлений является 11 апреля 2023 года «Надежная защита прав, свобод и законных интересов несовершеннолетних». женщины и дети. В связи с дальнейшим совершенствованием системы обозначен ряд вопросов ответственности путем принятия Закона Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в некоторые правовые документы». В данной исследовательской работе освещены предложения по изменению и дополнению мер ответственности.

Abstract: In recent years, the world community has been taking measures to prevent domestic violence. These problems did not bypass the Central Asian countries either. In particular, the principle of the inevitability of responsibility for family domestic violence committed in the Republic of Uzbekistan is more important, the purpose of preventing such violations and crimes is on April 11, 2023 "Reliable protection of the rights, freedoms and legal interests of women and children In connection with the further improvement of the system, a number of issues of responsibility are indicated by adopting the law of the Republic of Uzbekistan "On amendments and additions to certain legal documents". In this research work, proposals for changes and additions to liability measures are highlighted.

Kalit so'zlar: Oilaviy-maishiy zo'ravonlik, er-xotin, farzandlar, multk, cheklash.

Ключевые слова: семьяно-домашнее насилие, супружеская пара, дети, имущество, ограничение.

Key words: family-domestic violence, couple, children, property, restriction.



“Oilalarda ziddiyat tabiiy, ammo zo'ravonlik bu emas. Sizga yoki farzandlaringizga nisbatan zo'ravonlik, haqoratli yoki qo'rquituvchi xatti-harakatlar asosiy muammo hisoblanadi.

Oiladagi zo'ravonlik - bu murakkab masala, agar kerak bo'lsa, yordam bor. Agar siz hozirda zo'ravonlik, tahqirlash yoki qo'rqtish bilan aloqada bo'lsangiz yoki aloqada bo'lsangiz, murojaat qiling va oilaviy hayot bilan suhbatlashing. Biz sizga oilaviy zo'ravonlikni engishga yordam beradigan bir qator yordam va nozik xizmatlarni taklif etamiz.”¹ Shu kabi bir qator postlar internet saytlarini egallab oldi. Bu nima uchun sodir bo'lmoqda deb o'ylaysiz? Haqiqatdan ham jamiyatimizda oilaviy zo'ravonlik holatlari mavjudmi? Menimcha mavjud. Ilgari bunday holatlar latentligicha qolgan. Ammo hozirgi kundan inson huquq va erkinliklari eng oliy qadryat hisoblanishi, qilingan har bir huquqbuzarliklar va jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini taminlanmoqda.

Oilaviy zo'ravonlik o'zi nima degan savolga javob beradigan bo'lsak, qidiruvlarim natijasida <https://uz.wikipedia.org/wiki/orqali> quyidagicha fikrlarning guvohi bo'ldim. “Oiladagi zo'ravonlik” atamasining zamonaviy dunyoda birinchi marta qo'llanilishi, ya'ni uydagи zo'ravonlik ma'nosiga ega. 1973-yilda Jek Eshli Buyuk Britaniya parlamentiga qilgan murojaatida bo'lgan. Ilgari bu atama asosan fuqarolik tartibsizliklari, ichki zo'ravonliklarni nazarda tutgan. An'anaga ko'ra, oiladagi zo'ravonlik asosan jismoniy zo'ravonlik bilan bog'liq. Xotinni ho'rslash, xotinni kaltaklash va kaltaklangan ayol kabi atamalar ishlatilgan, ammo turmushga chiqmagan sheriklar, jismoniy zo'ravonlikdan tashqari zo'ravonlik, ayol jinoyatchilar va bir jinsli munosabatlarga kirishga urinishlar tufayli mashhurligi pasaygan. Oiladagi zo'ravonlik endi keng ma'noda oila a'zosi yoki yaqin sherigi tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan “barcha jismoniy, jinsiy, psixologik yoki iqtisodiy zo'ravonlik”ni o'z ichiga oladi.² **Oiladagi zo'ravonlik** (shuningdek, **oila zo'ravonligi** yoki **oilaviy zo'ravonlik** deb ham ataladi) oila sharoitida, masalan, nikoh yoki birgalikda yashashda sodir etiladigan zo'ravonlik yoki boshqa zo'ravonlik turidir. Oiladagi zo'ravonlik ko'pincha yaqin insoni yoki sherik zo'ravonligining sinonimi sifatida ishlatiladi, u boshqa shaxsga nisbatan yaqin munosabatlardagi odamlardan biri tomonidan qo'llaniladi va munosabatlarda yoki

¹ <https://www.familylife.com.au/uz/support/family-violence/>

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Oiladagi_zo%CA%BBravonlik



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

sobiq turmush o'rtoqlar yoki sheriklar o'rtasida sodir bo'lishi kuzatiladi. Keng ma'noda oiladagi zo'ravonlik **bolalar, ota-onalar yoki qariyalarga nisbatan** zo'ravonlikni ham o'z ichiga oladi. U bir nechta shakllarni o'z ichiga olishi mumkin: jismoniy, ruhiy, hissiy, iqtisodiy, diniy, reproduktiv yoki jinsiy zo'ravonlik kabi. Bu eng oddiy zo'rslash shakllaridan tortib, nikoh davrida zo'rslash va boshqa zo'ravonlik shakllaridan tortib jismoniy zo'ravonlikgacha bo'lishi mumkin, masalan, bo'g'ish, kaltaklash, ayollarning jinsiy a'zolarini kesish³ va kislota tashlash kabi zararlashi yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan va insonni nazorat qilish uchun buyumdan foydalanishi o'z ichiga oladi, misol tayoq.⁴ Maishiy qotillik toshbo'ron qilish, kelinni yoqish, nomus uchun o'ldirish va ba'zan birga yashamaydigan oila a'zolarining zo'ravonligini o'z ichiga oladi. 2015-yilda Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi oiladagi zo'ravonlik ta'rifini nazoratni o'z ichiga olgan holda majburiy tarzda kengaytirgan.⁵

Oiladagi zo'ravonlik nafaqat jismoniy tajovuzdir. Shuningdek, u odamning sizga yoki farzandlaringizga hukmronlik qilishi va boshqarishi mumkin bo'lgan bir qator usullarni nazarda tutadi, masalan:

Jinsiy tajovuz

Hissiy va psixologik azob, tayziq

Moliyaviy va iqtisodiy hukmronlik

Ijtimoiy izolyatsiya

Qo'rqitish

Zo'ravonlik

“O‘zbekistonda ayollar va huquq faollari yillar davomida ayollar va bolalarni oiladagi zo'ravonlikdan yaxshiroq himoyalash uchun kampaniya olib borishdi. O‘zbekiston nihoyat Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda Gruziya, Qirg‘iziston, Moldova va Ukrainadan keyin oiladagi zo'ravonlikni qonunga alohida jinoyat sifatida kiritgan beshinchi davlatga aylanmoqda”, deydi tadqiqotchi Xeza MakGill.⁶

³ Woodlock, Delanie (2017). ["The Abuse of Technology in Domestic Violence and Stalking"](#) (en). *Violence Against Women* **23** (5): 584–602. doi:[10.1177/1077801216646277](https://doi.org/10.1177/1077801216646277). ISSN 1077-8012. PMID 27178564.

⁴ ↑ „WESNET Second National Survey on Technology abuse and domestic violence in Australia“. 2021-yil 26-fevralda asl nusxdan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2022-yil 4-mart.

⁵ ↑ „Controlling or Coercive Behaviour in an Intimate or Family Relationship Statutory Guidance Framework“. 2018-yil 24-iyulda asl nusxdan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2022-yil 17-iyun.

⁶ <https://qalampir.uz/uz/news/-2375-80686>

Yuqoridagi holatlarni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-aprel kuni “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘s Shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun doirasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘s Shimchalar kiritildi. Jumladan, oila- turmush sohasida jinoyatlar sodir etiladigan bo’lsa yangi o‘zgarishlar bo'yicha ya'ni “Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiylar farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog‘lig‘ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqtish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo’lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa”⁷ O’zb.Res. Jinoyat Kodeksining 126¹-modda Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik javobgarlik masalasi qo‘llaniladi. Agarda ushbu qilmish uchun ma’muriy javobgarlik qo‘llanilmagan bo’lsa O’zb.Res. Jinoyat Kodeksining 126¹-moddasi 1-qismda ko’rsatilgan hola bo'yicha avval qoida ariqasida O’zb. Res.MJtKning 59²-moddasi Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Bu masalani boshqa chet davlari qonunchiligi bilan sotishtirib ko’rsak maqsadga muvofiq bo’ladi.

⁷ O’zb.Res. Jinoyat Kodeksining 126-1-moddasi. <https://lex.uz/acts/-111453>

- 
- **Age-** The offence applies to anyone of the age of criminal responsibility (those aged 10 years and above) unless the behaviour in question is perpetrated against a child under 16 by someone aged 16 or over who has responsibility for that child (see subsection (3)). Where a victim is aged 18 and under child safeguarding procedures should be followed, regardless of whether there is any police action. **An older person** may be the victim of **elder abuse**, this may include: financial, emotional, psychological, sexual physical or neglect. This can affect both men and women. The people carrying out the abuse are often in a position of trust such as a family relationship.
 - **Adolescent to parent violence and abuse (APVA)** - There is currently no legal definition of adolescent to parent violence and abuse. However, it is increasingly recognised as a form of domestic violence and abuse. Depending on the age of the child, it may fall under the government's official definition of domestic violence and abuse. It is important that a young person using abusive behaviour against a parent receives a safeguarding response regardless of whether there is any police action taken. The statutory guide to inter-agency working to safeguard and promote the welfare of children, '[Working Together to Safeguard Children](#)' sets out what professionals and organisations need to do to safeguard children. Responders should also use their discretion and professional judgement when addressing cases of APVA. See the Home Office guide on [Adolescent to Parent Violence](#) for more information.

⁸ya'ni yuqorida rasm orqali haqiqiy ma'nosini tushuntirib o'tadigan bo'lsam, 2015-yil 3-mart kuni Buyuk Britaniya hukumati tomonidan qabul qilingan qonunning 23-bandida tushuncha sifatida " yosh va farzandning ota-onasiga nisbatan zo'ravonlik va suistemol qilish " kabilar yoritilgan. Bu holatda farzand ota-onasiga nisbatan sodir etgan zo'ravonlik holati ham, ota-onasining farzandiga nisbatan sodir etgan tayziq va zo'ravonlik holatlari ham oilaviy-maishiy zo'ravonlik kabi javobgarlikka tortilishi, shuningdek yuqoridagi holatda ko'rsatilgan yosh masalasida, ushbu holatlar voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilsa jinoiy javobgarlik yoshi 10 yosh ekanligi, yoki keksa yoshdagi shaxslar tomonidan ham ushbu harakatlar sodir etilishi javobgarlikdan ozod qilinmasligi haqida ko'rsatilgan.

Moldova davlatining "**Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida**" 2007 yil 1 martdagi 45-XVI-sonli Qonunning 2-modda.

⁸https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/1174578/Controlling_or_coercive_behaviour - statutory guidance.pdf



Asosiy shartlar deb nomlanib, bir qator tushunchalarga ta'rif berilgan.

Xususan, Oilaviy zo'ravonlik - jismoniy, jinsiy, psixologik, ma'naviy yoki iqtisodiy zo'ravonlik yoki moddiy yoki ma'naviy zarar etkazish orqali namoyon bo'ladigan, o'zini himoya qilish yoki boshqa shaxslarni himoya qilish uchun jismoniy yoki og'zaki harakatlar bundan mustasno, qasddan qilingan har qanday harakat yoki harakatsizlik; oila a'zosi tomonidan oilaning boshqa a'zolariga, shu jumladan voyaga etmaganlarga yoki umumiy yoki shaxsiy mulkka nisbatan sodir etilgan⁹

O'zb.Res. Jinoyat Kodeksining 126¹-modda Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik va O'zb.Res. MJtKning 59²-moddasi Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bo'yicha javobgarlikka tortish bilan bog'liq normalariga o'zgartirish kiritish lozim. Bu kiritilgan yangi norma maxsus norma hisoblanib **faqat xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan qilmishlargagina qo'llaniladi va subyektlar doirasi ham shulardan iborat bo'ladi.** Ammo yuqoridagi moddalarning gipotezasidan kelib chiqadigan bo'lsak, xotin (er), sobiq xotin (sobiq er), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxs tomonidan **farzandlariga, o'gay farzandlar(o'gay bola, o'gay qiz, o'gay opa/singillar, o'gay aka/ukalar), farzandlikka olinganlarga nisbatan** sodir etilayotgan yuqoridagi harakatlarni ham bo'lsa O'zb.Res. Jinoyat Kodeksining 126¹-moddasi hamda O'zb. Res.MJtKning 59²-moddasi qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.familylife.com.au/uz/support/family-violence/>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oiladagi_zo%CA%BBBravonlik
3. Woodlock, Delanie (2017). "The Abuse of Technology in Domestic Violence and Stalking" (en). *Violence Against Women* 23 (5): 584–602. doi:10.1177/1077801216646277. ISSN 1077-8012. PMID 27178564.
- 4.↑ „WESNET Second National Survey on Technology abuse and domestic violence in Australia“. 2021-yil 26-fevralda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 4-mart.

⁹ <https://www.lawyer-moldova.com/2012/11/law-on-preventing-and-combating-family.html>



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

5. ↑ „Controlling or Coercive Behaviour in an Intimate or Family Relationship Statutory Guidance Framework“. 2018-yil 24-iyulda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 17-iyun.
6. <https://qalampir.uz/uz/news/-2375-80686>
- 7 O'zb.Res. Jinoyat Kodeksining 126-1-moddasi. <https://lex.uz/acts/-111453>
- 8.https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/1174578/Controlling_or_coercive_behaviour_-_statutory_guidance.pdf
9. <https://www.lawyer-moldova.com/2012/11/law-on-preventing-and-combating-family.html>